



**TA'LIM TIZIMINING RAHBAR KADRLARI FAOLIYATIDA IJTIMOIY
KREATIVLIK AHAMIYATI**

Xidirov Bobur Nosirovich

Kitob 2-sonli kasb-hunar maktabi amaliyotchi psixolog

Telefon: +998939064555

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kreativlikning mohiyati, ta'lif tizimining rahbar kadrlarida kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, rahbar pedagoglarning ta'lif tarbiyaviy faoliyatga kreativ yondashuvi bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy omil, kreativlik, pedagoglar, ta'lif-tarbiya, kreativ yondashuv, metod, strategiya, faoliyat, aqliy salohiyat.*

Hozirgi paytda jamiyatning ta'lif oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to'g'ri yondashgan holda ularni amalda bajarish pedagoglarning asosiy vazifasidir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Hozirgi jamiyatimizda rahbar pedagoglar eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo'lishi lozim chunki, u kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsnı intellektual hamda ma'naviy qashshoqligidan qutqarib qoladi. Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi. Rahbar pedagogning kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create"-yaratish, "creative"yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkun. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib rahbar pedagogning kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkun. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. "Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik ko'nikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.
3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.
4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.



Inson o‘z miyasi o‘z ishini yengillashtirish, qulaylashtirish uchun shablon va steratiblardan foydalanadi. Stereotipler shu paytgacha ma‘lum bo‘lgan umummaqbul fikrlardir. Ular asosida fikrlashga bizga hech qanday yangi g‘oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustivor bo‘lgan ijtimoiy fikr, media mahsulotlaridan taqdim etilayotgan shakl va ko‘rinishlar xam yetakchi o‘rin tutadi. Inson ommadan ajralib qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo‘shiladi. Qolaversa oqim bo‘ylab suzish mustaqil fikrlashdan ko‘ra osonroq tuyiladi. Stereotipler orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo‘yicha, inson ongiga so‘rov berilganda odatiy ma‘lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Kreativ fikrlovchi insonlar oddiy manzalardan o‘zgacharoq tasvirlarni xam tasavvur qilib hech kim ilg‘amagan jihatlarini payqaydi va yangilik yarata oladi.

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g’ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda muammo yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Kreativ yondashuv bevosita innovatsiyalar bilan bog‘liq jarayondir. Negaki rahbarning ijodiy faoliyat yuritishi uchun, u albatta o‘zining sohasidagi eng so‘nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqeа va hodisalardan xabardor bo‘lishi, innovatsion yangiliklarni o‘z faoliyatida o‘rinli foydalana olishi lozim. Demak, rahbar har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo‘lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish, rahbarlik qilayotgan xodimlariga tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko‘rinishi deyish mumkin.

Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi rahbarlarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlanТИRIB boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, rahbarning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Kreativlik- bu insonni hayotga moslashishi emas, balki uni o‘zgartirishidir. Kreativlikning asosiy omili bu insonning dezadaptatsiyasi, ya’ni uni atrof olam va ijtimoiy muhitga moslasha olmasligida deb qaralan nazariyalar ham mavjud. Ba’zi olimlar shaxsning kreativlik xususiyatini tashqi olam va insonlardan yolg‘izlanish deya ta’rif berishgan. Aynan real olamga nisbatan dezadaptatsiyasi mavjud bo‘lgan, moslasha olmagan inson o‘zidagi yolg‘izlikni engib o‘tish uchun ijod qilish va yangilik yaratishni boshlar ekan. Rahbar jamiyat ijtimoiy- siyosiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohatlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada qo‘l ostidagi pedagoglarga bera olishi lozim. Shu bilan birga bugungi kun rahbar pedagog o‘z mutahasisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi shart. Ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va



axborot tehnologiyalarining eng samarali shakli-metod va vositalaridan unumli foydalana olish zamonaviy ustozning eng samarali qurolidir. Ijodkorlik (kreativlik) qobiliyatlariga ega bo'lish ko'nikmasi ham asosiy xislatlardan biridir, ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lish har bir ustoz uchun muhimdir. Ya`ni, o'qituvchi zamonaviy o'quvchilar nima bilan yashayotganini tushinishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kreativlik hozirgi kunda judayam, shuningdek O'zbekistonda tanqis, kam uchraydigan narsalardan biri hisoblanadi. Bunga sabab ko'pchilik rahbarlarni o'z ustida ko'p ishlamasligida deb aystsak bo'ladi. Kreativlik uchun qobiliyat tug'ma bo'lishi kerakmi degan savol tug'iladi. Qaysidir ma'noda albatta kerak bo'ladi. Lekin hammasi mehnatga, o'z ustida ishlashga borib taqaladi. Kreativ- rahbar har tomonlama rivojlangan, muammoli vaziyatlarda ham o'zgacha yondashib osonlik bilan hal qiladigan shaxsdir. Shuni unutmaslik kerakki, bugungi jamiyat bir xillikdan zerikdi. Endi faqatgina kerativ o'ylagan rahbargina hammadan ajralib tura oladi. Chunki kreativlik- bu cheklash mumkin bo'lgan tushuncha emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safayev N.S., Mirashirova N.A. "Umumiyl psixologiya nazariyasi va amaliyoti" TDPU, 2013 y, B.124-137.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
3. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov "Umumiyl pedagogika" – Toshkent, "Fan va texnalogiya" nashriyoti, 2018-yil, 530 bet, 210-bet.